



**QARAQALPAQSTAN
RESPUBLIKASI MAMLEKETLIK AKTIVLER BASQARMASI
B U Y R I G'I**

2023-jil 12-Yanvar

№12

Nókis qalası.

**Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2022-yil 30-dekabr kungi
300/XL-sonli qarorining ijrosini ta'minlash to'g'risida**

Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2022-yil 30-dekabrda "Qoraqalpog'iston Respublikasining 2023-yilgi hududiy byudjet parametrlari to'g'risida"gi 300/XL-sonli qarorining ijrosini ta'minlash maqsadida **buyuraman.**

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesining 2022-yil 30-dekabrda "Qoraqalpog'iston Respublikasining 2023-yilgi hududiy byudjet parametrlari to'g'risida"gi 300/XL-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur Qarorga muvofiq quyidagilar:

Bo'sh turgan obyektlar markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Embergenov):

- bo'sh turgan davlat ob'ektlarini aniqlash bo'yicha inventarizatsiya ishlarini natijali tashkillashtirish;

- inventarizatsiya natijasida aniqlangan bo'sh turgan davlat ob'ektlarining ro'yxatini shakllantirish va ijaraga berish yoki sotish bo'yicha tegishli takliflarni tayyorlasin.

3. Axborot xizmatlari bo'yicha bosh mutaxassisi (E.Mamutov) bo'sh turgan davlat ob'ektlarini sotish bo'yicha sotsial tarmoqlarda hamda ommaviy axborot vositalari orqali roliklar, videomateriallar tayyorlanishini va tarqatishini ta'minlasin.

4. Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi (Qarlibaev) xususiylashtirishga mo'ljallangan davlat aktivlarni belgilangan tartibda «e-auksion» elektron savdo platformasiga joylashtirish vazifalari yuklatilsin.

5. Murojaatlar bilan ishlash bo'yicha bosh mutaxassisi (Jiemuratova) mazkur buyruq nusxasini Bo'sh turgan obyektlar markazining Qoraqalpog'iston Respublikasi hududiy boshqarmasi (Embergenov)ga, boshqarmaning Axborot xizmatlari bo'yicha bosh mutaxassisi (E.Mamutov)ga va Davlat aktivlarini sotishga tayyorlash va sotish ishlarini muvofiqlashtirish bo'limi (Qarlibaev)ga shaxsan yetkazilishini ta'minlasin.

6. Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazorat o'rnatishga hududiy boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinbosari v.b. A.Sanetullaev mas'ul etib belgilansin.

Boshqarma boshlig'i



M.Radjabov